



HUJJATCHILIKNING PAYDO BO'LISH TARIXI

M.A.Raximova

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O'zbek va chet tillari kafedrası
katta o'qituvchisi
rakhimovamalohat10@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18655336>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 13- fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 16- fevral 2026 yil

KEY WORDS

Hujjat, hujjatchilik, vasiqa, yo'riqnoma, farmoyish, patta, yorliq, risola.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hujjat va hujjatchilikning shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. "Hujjat" atamasining lug'aviy mazmuni hamda Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida hujjatchilik tizimining rivojlanishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Turkiy xalqlardagi hujjatchilik an'analari, qadimgi yozma manbalar, arxeologik topilmalar va o'zbek davlatchiligidagi hujjat turlari o'rganiladi.

Insoniyat jamiyatining tarixiy rivoji boshqaruv va tartibni ta'minlovchi qonun-qoidalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu me'yorlar og'zaki shakldan yozma shaklga o'tishi bilan davlat boshqaruvi, mulkiy munosabatlar, ijtimoiy tartib va diplomatik aloqalarni tizimli yuritish imkoniyati paydo bo'ldi [3:78]. Yozma hujjatlarning paydo bo'lishi nafaqat ma'muriy boshqaruv zaruriyati, balki madaniyat va huquqiy tafakkurning taraqqiyot belgisi hamdir [2:15]. Shu bois hujjatchilikni o'rganish — jamiyat sivilizatsion rivojini o'rganishning muhim qismi hisoblanadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ko'ra, "hujjat" so'zi "dalil, isbot", shuningdek "shaxs yoki huquqni tasdiqlovchi qog'oz" ma'nolarida qo'llanadi [1:412]. Hujjat nafaqat rasmiy tasdiq, balki tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega yozma manba sifatida ham e'tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Hujjatchilikning ilk namunalari miloddan avvalgi Sharq davlatlariga borib taqaladi. Babil shohi Xamurapining qonunlari va Ur-Nammu qonunlari eng qadimgi huquqiy-hujjatli majmualardan hisoblanadi [3:81]. Bu hujjatlar mulkiy munosabatlar, jazo tizimi va ijtimoiy mas'uliyat masalalarini tartibga solgan. Yevropada IX-X asrlardan boshlab rasmiy shartnomalar va dalolatnomalar paydo bo'lib, XIV asrdan qog'oz hujjatlar kengaydi [2:27]. Pyotr I davrida "dokument" atamasi rasmiy muomalaga kirgan [3:92].

Turkiy xalqlarda hujjatchilik an'analari qadimiy manbalarda aks etgan. Mahmud Qoshg'ariy "bushug" atamasini elchiga beriladigan ruxsatnoma sifatida izohlaydi [4:56]. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilik"da "bildargulik" atamasini qo'llagan [4:61].

X-XIX asrlarda yorliq, farmon, bitim, arznoma, qarznoma, tilxat kabi hujjatlar keng qo'llangan [7:118]. To'xtamishxon (1393), Temur Qutlug' (1397), Umarshayx Mirzo (1469) yorliqlari chingiziylar davri hujjatchilik formulalarini aks ettiradi [7:124].

Qo'qon xonligida hujjatchilik. XIX asrda Qo'qon xonligida patta hujjati keng tarqalgan bo'lib, u moliyaviy va xo'jalik munosabatlarini rasmiylashtirish vositasi bo'lgan [6:83]. Pattalarda an'anaviy tarkibiy-sintaktik qolip shakllangan.

Sug'd va Xorazm manbalari. VII–VIII asrlarga oid Mug' qal'asidan topilgan sug'd hujjatlari o'sha davr ish yuritish tizimini yoritadi [3:105]. Nikoh shartnomalari, yer oldi-sotdi bitimlari va soliq yozuvlari mavjud. Tuproqqal'a hujjatlari aholi ro'yxati va soliqqa oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [4:73].

Tadqiqot metodologiyasi. Namangan viloyatidagi Mog'il qal'asidan topilgan sug'dcha yozuvli hujjatlar ham o'rta asr mahalliy boshqaruv tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Risola hujjatlari hunarmandchilik va axloqiy me'yorlarni tartibga soluvchi yo'riqnomalar sifatida xizmat qilgan [6:97]. Risola mazmuniy jihatdan zamonaviy yo'riqnomalarga o'xshab, kasb egalarining huquq va majburiyatlarini belgilagan. **"Temur tuzuklari"** davlat boshqaruvi tamoyillarini belgilagan muhim hujjatdir [3:134]. Bu asar nafaqat tarixiy manba, balki davlat boshqaruvi nazariyasining erta shakllaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Rossiya imperiyasi davrida hujjatchilikdagi o'zgarishlar. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida mahalliy hujjatchilikka rus ma'muriy tizimi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda rasmiy hujjatlar asosan rus tilida yuritila boshlandi. Sharqshunos va arxeograf V.L. Vyatkin vaqfnomalar hamda o'rta asr hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritib, mahalliy hujjatchilik tarixini chuqur o'rgangan. Mazkur tadqiqot tarixiy-huquqiy va manbashunoslik yo'nalishidagi ilmiy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik tamoyillar qo'llanildi. Jumladan, tarixiylik va tizimlilik prinsiplari asosida hujjatchilikning shakllanish bosqichlari izchil ravishda o'rganildi. Hujjatchilik taraqqiyoti qadimgi Sharq davlatlari, turkiy davlatchilik an'analari hamda o'zbek xonliklari misolida davriy tasnif asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tarixiy-qiyosiy metod — turli davr va hududlardagi hujjat turlarini o'zaro solishtirish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Xususan, yorliq, patta, farmon, risola kabi hujjatlarning funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

2. Manbashunoslik tahlili — arxeologik topilmalar (Mug' qal'asi, Tuproqqal'a), vaqfnomalar, yorliqlar va boshqa tarixiy yozma manbalar mazmunan va shaklan o'rganildi.

3. Lingvistik tahlil — hujjatlarda qo'llangan terminologiya, rasmiy uslub elementlari, tarkibiy-sintaktik qoliplar aniqlanib, ularning zamonaviy ish yuritish tiliga ta'siri baholandi.

4. Sistemali yondashuv — hujjatchilik davlat boshqaruvi, huquqiy tizim va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi.

5. Shuningdek, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar, tarixiy qo'lyozmalar va amaliy qo'llanmalarga tayangan holda nazariy umumlashtirish ishlari olib borildi. Tadqiqotda empirik ma'lumotlar bilan nazariy qarashlar o'zaro uyg'unlashtirildi.

6. Mazkur metodologik yondashuv hujjatchilikni nafaqat tarixiy hodisa, balki huquqiy tafakkur va yozuv madaniyatining rivojlanish ko'rsatkichi sifatida kompleks o'rganish imkonini berdi.

Xulosa. Hujjatchilik insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, uning rivoji jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq [3:140]. Turkiy xalqlardagi yorliq, patta, risola kabi hujjatlar o'zbek hujjatchiligining boy merosi ekanligini ko'rsatadi. Arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar va yozma yodgorliklar hujjatchilikning ming yillik tajribaga ega ekaniga dalildir. Mazkur sohaga oid tadqiqotlarni davom ettirish milliy davlat boshqaruvi tarixini, yozuv madaniyatini va huquqiy tafakkurni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hujjatchilik insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida muhim ijtimoiy-huquqiy vazifani bajargan. Yozma hujjatlarning paydo

bo'lishi davlat boshqaruvi tizimining markazlashuvi, mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi va ijtimoiy mas'uliyatning huquqiy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Qadimgi Sharq davlatlaridagi qonun majmualari, Sug'd va Xorazm hududlaridan topilgan hujjatlar, turkiy davlatchilik an'analari yorliq va farmonlar, Qo'qon xonligidagi pattalar hamda risolalar o'zbek hujjatchiligi tarixining uzluksiz rivojini ko'rsatadi. Bu jarayon o'z navbatida milliy davlatchilik an'analari, boshqaruv madaniyati va huquqiy tafakkur shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Amir Temurning "Tuzuklari" esa o'rta asr davlat boshqaruvi hujjatchiligining mukammal namunasi sifatida nafaqat tarixiy manba, balki boshqaruv nazariyasining erta konseptual modeli sifatida ham ahamiyat kasb etadi. XIX–XX asrlarda Rossiya imperiyasi ta'sirida mahalliy hujjatchilik tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, milliy hujjatchilik an'analari to'liq yo'qolib ketmagan, aksincha, zamonaviy ish yuritish tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois hujjatchilik tarixini chuqur o'rganish: milliy davlatchilik tarixini tiklash, yozuv madaniyatining evolyutsiyasini aniqlash, huquqiy tafakkur shakllanish jarayonini tahlil qilish, zamonaviy ish yuritish tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusida arxiv manbalari, qo'lyozmalar va arxeologik topilmalarni raqamlashtirish, ularni lingvistik va huquqiy jihatdan chuqur tahlil qilish hujjatchilik tarixini yanada mukammal yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Z.M. Ma'rufov tahriri ostida.
2. M. Aminov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, N. Mahmudov. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – 2003.
3. Z. M. Jo'rayev. Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash. – 2011.
4. Q. Sodiqov. Eski uyg'ur yozuvi. – 1989.
5. ЦГВИА РФ, Архив внешней политики России. Фонд Ташкентские дела, опись III/I, дело № 1, опись 132/1, дело № 6.
6. S.O'. Abdulg'aniyevich. Toshkent vaqf hujjatlarida an'analari, islohotlar va muammolar (XVI–XV asrlar boshlariga oid manbalar asosida). Dissertatsiya.
7. Grigoryev A.P. Конкретные формуляры чингизидских жалованных грамот XIII–XV вв. Тюркологический сборник. — М., 1978.
8. Samarqand VDA. 1843-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'majild.
9. <https://fayllar.org/hujjatchilik-tarixi-va-uning-takomillashuvi-hujjatchilik-tarix.html>